



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 180-189 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

INVENTARIZATSIYA QILISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-USLUBIY JIHATLARI



Aitimbetov Amirbek Qoishibekovich,

Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,

Iqtisodiyot fakulteti, «Buxgalteriya hisobi va soliq»

kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD),

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Email: amirbek383@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada inventarizatsiya qilish jarayonini tashkil etishning tashkiliy-uslubiy jihatlari o'rganilgan. Xususan, hovuz baliqchiligi xususiyatlaridan kelib chiqib, namunaviy «Inventarizatsiya rejasi», «Baliqchilikda biologik aktivlarni inventarizatsiya qilish dalolatnomasi»ning namunaviy shakli va «Mavsumda lichinkalarni etiltirish natijalari to'g'risida dalolatnoma»ning namunaviy shakli tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: bahorgi inventarizatsiya, kuzgi inventarizatsiya, lichinkalarni inventarizatsiya qilish, segoletkalarni inventarizatsiya qilish, bir yillik baliqlarni inventarizatsiya qilish, ikki yillik baliqlarni inventarizatsiya qilish, rasmiylashtirish.

Аннотация. В данной статье изучены организационно-методические аспекты организации процесса инвентаризации. В частности, с учётом особенностей прудового рыбоводства рекомендованы типовой «План инвентаризации», типовая форма «Акт инвентаризации биологических активов в рыбоводстве», а также типовая форма «Акт о результатах выращивания личинок в сезон».

Ключевые слова: весенняя инвентаризация, осенняя инвентаризация, инвентаризация личинок, инвентаризация сеголеток, инвентаризация годовиков, инвентаризация двухгодовиков, оформление.

Abstract. This article examines the organizational and methodological aspects of organizing the inventory process. In particular, taking into account the specific features of pond fish farming, a standard "Inventory Plan," a standard form of the "Act of Inventory of Biological Assets in Fish Farming," as well as a standard form of the "Act on the Results of Larvae Rearing During the Season" are recommended.

Keywords: spring inventory, autumn inventory, larvae inventory, fingerling inventory, one-year-old fish inventory, two-year-old fish inventory, documentation.

Kirish. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi hamda ishonchliligi aktivlar va majburiyatlarni majburiy tarzda inventarizatsiyadan o'tkazish orqali tasdiqlanadi. Inventarizatsiya ob'ektlari, uni o'tkazish tartibi va muddatlari inventarizatsiya bo'yicha buxgalteriya hisobi standartida belgilanadi[1].

O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-sonli BHMS) «Tovar-moddiy zaxiralar» talablariga muvofiq, tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi kamida yilda bir marta amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-sonli BHMS) «Asosiy vositalar»ga asosan, asosiy vositalar inventarizatsiyasi kamida ikki yilda bir marta o'tkazilishi shart[2].

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda, baliqchilik xo'jaliklarida tovar-moddiy qiymatliklar bo'yicha bir yil davomida kamida to'rt marta majburiy inventarizatsiya o'tkazilishi zarur. Bu esa moddiy resurslar harakatini doimiy nazorat qilish, moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllantirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur masalaning ilmiy jihatdan tadqiq etilishi baliqchilik xo'jaliklarida inventarizatsiya o'tkazishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlash hamda amaliyotda hisob-kitoblarning aniqligi va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. Tadqiqot mavzusi doirasida xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlar A.F.Mustafina, A.M.Xusainovalarning fikricha «Inventarizatsiya tashkilot mulkining saqlanishini nazorat qilishning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, ushbu muammolarni hal etish imkonini beradi. Inventarizatsiya jarayonida qimmatliklarning saqlanishi tekshiriladi va ularning haqiqiy mavjudligi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtiriladi»[7].

A.I.Kibitkin «Inventarizatsiya – buxgalteriya hisobi usulining muhim elementi sifatida moddiy boyliklar, pul mablag'lari va moliyaviy majburiyatlarning tabiiy holdagi mavjudligini tekshirish orqali ularning haqiqiy holatini aniqlash imkonini beradi. U buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining haqqoniylikni tasdiqlaydi yoki hisobda aks ettirilmagan aktivlar, yo'qotishlar, kamomad va o'g'rilik holatlarini aniqlab beradi. Shu bilan birga, inventarizatsiya moddiy boyliklar hamda pul mablag'lari saqlanishini nazorat qilish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchliligini baholashda muhim axborot manbai vazifasini bajaradi»[4] deb izohlagan.

N.Kovannayaning fikricha «Inventarizatsiyani o'tkazishdan ko'zlangan maqsadlar quyidagilardan iborat:

1. Tashkilot ixtiyoridagi mol-mulkning haqiqiy mavjudligini aniqlash, uning saqlanishini ta'minlash, shuningdek, hisobda aks ettirilmagan mol-mulk va tovarlarni aniqlash.
2. Tashkilotning asosiy vositalaridan foydalanish holati va ularning ekspluatatsiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish, tovar-moddiy boyliklarning saqlanish sharoitlarining to'g'riligini baholash, shuningdek, nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish.
3. Ishlab chiqarish jarayonida tovar-moddiy resurslardan amaliy foydalanish holatini va ularning mahsulot tayyorlashdagi hissasini aniqlash.
4. Ombor va savdo shoxobchalaridagi tovarlar hamda mahsulotlar bo'yicha ortiqcha qoldiqlar yoki kamomadlarni aniqlash»[5].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimi B.Yu.Menglikulov «O'stirishdagi hayvonlarni inventarizatsiya qilish tartibi va davriyligi, inventarizatsiya natijalarini hisobda aksettirilishini tekshirish. Inventarizatsiya ma'lumotlarini qalbakilashtirishga imkon

bermaydigan qoidalarga amal qilgan holda, belgilangan muddatlarda o'tkazilganligini aniqlash zarur. Bu maqsadda auditor o'stirishdagi hayvonlar inventarizatsiyasida ishtiroketishi zarur. Auditor inventarizatsiya natijalari buxgalteriya hisobida to'g'ri va to'liq aks ettirilishini nazorat qilishi, shuningdek ular korxona rahbariyati tomonidan tahlil qilinishi, kamomad aniqlangan holatlarda tegishli choralar ko'rilishini aniqlashtirilishi zarur» deb taqidlagan[6].

R.O.Xolbekovning fikricha «Inventarizatsiya – korxona mablag'larini tekshirib, ro'yxatga olish va olingan ma'lumotlarni hisob ma'lumotlari bilan taqqoslash demakdir. Yoki inventarizatsiya xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari, xo'jalik jarayonlarini buxgalteriya hisobi hujjatlariga asosan qayta ro'yxatdan o'tkazishdir[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida avvalo umumiy metodologik asos sifatida dialektika; shuningdek, ilmiy tafakkur, qiyoslash kabi umumilmiy nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Empirik tadqiqotlar esa, ilmiy manbalarni sharhlash metodi qo'llanilgan holda o'tkazildi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi vaqtda baliqchilik korxonalari amaliyotida aktivlar (xususan, biologik aktivlar va tugallanmagan ishlab chiqarish) va majburiyatlar hamda baliq mahsulotlari inventarizatsiya qilinmayapti. Ya'ni, 404-son O'RQning 16-moddasi, 19-sonli «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli BHMS talablari bajarilmayapti. Natijada, ushbu hisob ob'ektlari bo'yicha inventarizatsiya ma'lumotlari bilan tasdiqlanmagan va ishonchliligi kafolatlanmagan buxgalteriya balansi tuzilmoqda. Buning oqibatida moliyaviy hisobotdan tashqi foydalanuvchilar ham, ichki foydalanuvchilar ham noto'g'ri boshqaruv qarorlari tayyorlamoqda va ularning ijrosi samarasiz bo'lmoqda. Bu vaziyat baliqchilik xo'jaliklarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda inventarizatsiyani tashkil etish, o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish tartibi ishlab chiqilishini taqazo etmoqda.

Fikrimizcha, talablarning hozirgi vaqtda baliqchilik xo'jaliklarida bajarilmayotganligining asosan ikkita sababi mavjud. *Birinchisi*, qonun ijrosining etarli darajada monitoring qilinmasligi, *ikkinchisi*, inventarizatsiya o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish bo'yicha bu tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi normativ hujjat va uslubiy tavsiya larning yo'qligi. Shu bois, 19-sonli «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli BHMSni baliqchilik tarmog'ining xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta tahrirlash yoki alohida uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish lozim, deb hisoblaymiz. Xususan, ularda hovuz baliqchiligi xususiyatlari (to'la tizimli, to'liqsiz tizimli, polikultura, monokultura va h.lar) kelib chiqib, namunaviy «Inventarizatsiya rejasi» ishlab chiqishni taklif qilamiz. To'la tizimli hovuz baliqchiligi xo'jaliklarida mahsuldor baliqlar va baliqlarning ota-onalik to'dasi bir yilda **ikki marta** (bahorda va kuzda) inventarizatsiya qilish tavsiya etamiz.

Bahorgi inventarizatsiya hovuzlardagi baliqlar to'liq ovlanib, mahsuldor baliqlar va baliqlarning ota-onalik to'dasi onalik va urchitish hovuzlariga o'tkazilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Kuzgi inventarizatsiya qishlatishdan oldin onalik va urchitish hovuzlari to'liq ovlanib, qishlatiladigan hovuzlarga o'tkazilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, baliqchilikda biologik aktivlar, tayyor baliq mahsulotlari va tugallanmagan ishlab chiqarishni inventarizatsiya qilish, ya'ni hovuzlarda boqilayotgan baliqlarni inventarizatsiya qilish hisob guruhlari va moddiy javobgar shaxslar bo'yicha quyidagi hollarda o'tkazilishi maqsadga muvofiq:

- a) eng kam qoldiq qolgan vaqtlarda (permanent inventarizatsiya) yoki
- b) baliqlarni boqish muddati yakunlanib, boshqa hovuzlarga o'tkazish vaqtida.

Baliqchilik xo'jaliklarida tugallanmagan ishlab chiqarishni biologik aktivlarning har bir biotransformatsiyalanish jarayoni: mahsuldor va ota-onalik baliqlar to'dasi, lichinkalar, chavoqlar, segoletkalar, bir yillik, ikki yillik baliqlar, uch yillik (**agar texnologiyaga muvofiq uch yillik oborot bo'lsa*) baliqlar, sotish uchun qoldirilgan hamda ovlanib omborlarda saqlanayotgan baliqlar bo'yicha inventarizatsiya qilish maqsadga muvofiq.

Bahorgi inventarizatsiya qishlatilgan baliqlar to'liq ovlanib, **mahsuldor va ota – onalik to'da** urchitish va o'stirish hovuzlariga ko'chirilganidan so'ng amalga oshiriladi. Kuzgi inventarizatsiya esa o'stirish hovuzlari to'liq ovlanib, **mahsuldor va ota – onalik to'da** qishlatiladigan hovuzlarga ko'chirilganidan so'ng amalga oshiriladi. Inventarizatsiya o'tkazish muddatlari «Hujjatlar aylanish reja-grafigi»ga muvofiq belgilanadi.

1-jadval

Tashkilot _____	TASDIQLAYMAN
Bo'linma _____	(rahbar imzosi, familiyasi va ismi-sharifi)
(brigada) _____	«___» _____ 20__ y.
Baliqchilikda biologik aktivlarni inventarizatsiya qilish DALOLATNOMASI № _____ «___» _____ 20__ holatiga	
Baliqlar to'dasi nomi	
Komissiya tarkibi: _____ _____ (lavozimi, imzosi, familiya va ismi-shariflari,)	
_____ (lavozimi, imzosi, familiya va ismi-shariflari,)	
tayinlangan _____ bilan _____ _____ inventarizatsiya qilindi (buyruq raqami, sanasi) (baliqlar to'dasi nomi)	
«___» _____ 20__ y. gacha	
zimmasidagi moddiy-javobgar shaxs _____	
_____ (lavozimi)	(imzo) (familiyasi, ismi-sharifi)

(davomi)

Hovuz raqami	Baliqlar turi, zoti, yoshi va jinsi	Qo'yildi		Bajarildi			Komissiya qaroriga muvofiq baliqlarni ishlatish yo'nalishlari												
		Miq-dori, dona	O'rtacha og'irligi, g	Miq-dori, dona	Og'irligi, kg	O'rtacha og'irligi, g	To'dada qoldirilgani				Nasli material sifatida sotilgani			Brak qilingan		Hisob-kitob ko'rsatkichlari			
							Hovuz raqami	Miq-dori, dona	Og'irligi, kg	O'rtacha og'irligi, g	Miq-dori, dona	Og'irligi, kg	O'rtacha og'irligi, g	Miq-dori, dona	Og'irligi, kg	Qish (yoz) davomida tirik qolishi, %	Qish (yoz) davomida vaznining o'zgarishi (o'sish «+», yo'qotish «-»)	Bir donasi o'rtacha, g	Umumiy, kg
-1-	-2-	-3-	-4-	-5-	-6-	-7-	-8-	-9-	-10-	-11-	-12-	-13-	-14-	-15-	-16-	-17-	-18-	-19-	-20-

orga tomoni

Hovuz raqami	Baliqlar turi, zoti, yoshi va jinsi	Qo'yildi		Bajarildi			Komissiya qaroriga muvofiq baliqlarni ishlatish yo'nalishlari												
		Miq-dori, dona	O'rtacha og'irligi, g	Miq-dori, dona	Og'irligi, kg	O'rtacha og'irligi, g	To'dada qoldirilgani				Nasli material sifatida sotilgani			Brak qilingan		Hisob-kitob ko'rsatkichlari			
							Hovuz raqami	Miq-dori, dona	Og'irligi, kg	O'rtacha og'irligi, g	Miq-dori, dona	Og'irligi, kg	O'rtacha og'irligi, g	Miq-dori, dona	Og'irligi, kg	Qish (yoz) davomida tirik qolishi, %	Qish (yoz) davomida vaznining o'zgarishi (o'sish «+», yo'qotish «-»)	Bir donasi o'rtacha, g	Umumiy, kg
-1-	-2-	-3-	-4-	-5-	-6-	-7-	-8-	-9-	-10-	-11-	-12-	-13-	-14-	-15-	-16-	-17-	-18-	-19-	-20-

Komissiya raisi

(imzo)

(familiyasi, ismi-sharifi)

A'zolari

(imzo)

(familiyasi, ismi-sharifi)

Moddiy javobgar shaxs

(imzo)

(familiyasi, ismi-sharifi)

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, amaliyotda inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish uchun maxsus hujjat shakli mavjud emas, **19-son BHMS**da ham tavsiya etilmagan. Shu bois, «Inventarizatsiya Qaydnomasi»ni (1-jadval) tavsiya etamiz va uni rasmiylashtirish hovuzlardagi baliqlarni ovlash vaqtida amalga oshiriladi.

Ushbu qaydnoma baliqchilik xo'jaligining hisob siyosatiga muvofiq tashkil etilgan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi komissiya tomonidan tuzilib, rahbar tomonidan tasdiqlanadi.

Qaydnomaning tegishli grafalarida baliqlarning turi, zot guruhi, yoshi va jinsi, havza qo'yilgan va ovlab olingan baliqlar miqdori, o'rtacha vazni, komissiya qaroriga muvofiq baliqlarni ishlatish yo'nalishlari (xo'jalikda qoldirilgani, mahsuldor material sifatida sotilgani, brak qilingani va h.k.) va hisob-kitob ko'rsatkichlari – soni va og'irligi, vaznining o'zgarishi (qo'shilgan yoki yo'qotilgan vazn).

Shuningdek, baliqlarning defektlari, jarohatlanganligi va kasallanganligi tekshiriladi. Baliqlarni tekshirish ixtiopatolog ishtirokida amalga oshirilib, baliqlarning klinik holati aniqlanadi, ularda parazitlar va yuqumli kasalliklar bor-yo'qligi aniqlanadi va iste'molga yaroqliligi yoki tavsiya etiladigan profilaktika usullari hamda davolash tadbirlari to'g'risida xulosa beriladi.

Qaydnoma belgilangan talablarga muvofiq rasmiylashtirilganidan so'ng xo'jalik

rahbari tomonidan imzolanadi va buxgalteriyaga topshiriladi.

Lichinkalarni inventarizatsiya qilish, ularni urchitish moslamali, sadok (qafas)lar va basseynlardan (zavod metodida inkubatsiya apparatlaridan) chavoq boqiladigan hovuzlarga hamda o'stirish hovuzlariga o'tkazish davrida amalga oshiriladi.

Lichinkalarni hisobga olishda quyidagi usullar qo'llaniladi:

– *donabay yoki bevosita usul* tekis doka material yordamida amalga oshiriladi. Basseynlarda o'stirilayotgan lichinkalar «sanash sektori» yordamida sanaladi. Buning uchun baliqlar basseynda bir tekis (teng) taqsimlangan vaqtda undan 10 % joy ajratilib, shu erdagi lichinkalar soni aniqlanadi. So'ngra lichinkalar soni 10 ga ko'paytirilib, ularning umumiy soni aniqlanadi;

– *etalon usul* qo'llanilganda bitta chelakka ma'lum miqdordagi lichinkalar sanab solinadi va ikkinchisiga sanamasdan solinadi. Ikkinchi chelakka lichinkalar soni birinchi chelakdagi (sanalgan) lichinkalarga teng bo'lguncha solinadi. Bunda xatolik 5 -10 % atrofida bo'lishi mumkin.

Bosh baliqchi va komissiya tomonidan lichinkalarni sanash natijalari to'g'risida «Mavsumda lichinkalarni etiltirish natijalari to'g'risida Dalolatnoma» uch nusxada tuzilishi zarur (2-jadval).

2-jadval

Tashkilot _____
Bo'linma (brigada) _____

TASDIQLAYMAN

(rahbar imzosi, familiyasi va ismi-sharifi,)

«____» _____ 20__ y.

Mavsumda lichinkalarni etiltirish natijalari to'g'risida

DALOLATNOMA № ____ « ____ » _____ 20__ y.

Yetilishtirish bo'yicha quyidagi natijalar aniqlandi:

Hovuz №	Hovuzning umumiy maydoni, ga	Baliqlarning turi, yoshi va jinsi	Etilishtirish uchun qoʻyilgan lichinkalar, ming dona	Etiltirish davomiyligi, kun	Mavsumdagi etilishtirish natijasida olindi			Baliqchalarning taqsimlanishi			Eslatma
					Miqdori		Baliqchalar-ning oʻrtacha ogʻirligi, kg	Hovuz №	Oʻstirish uchun hovuzga qoʻyilgan baliqchalar, ming dona	Sotilgan baliqchalar, ming dona	
					ming dona	Qoʻyilgan lichinkalardan foiz chiqishi					
-1-	-2-	-3-	-4-	-5-	-6-	-7-	-8-	-9-	-10-	-11-	-12-

Bosh baliqchi _____

(imzo)

(familiyasi, ismi-sharifi)

Buxgalter _____

(imzo)

(familiyasi, ismi-sharifi)

Brigadir _____

(imzo)

(familiyasi, ismi-sharifi)

Ishchilar _____

(imzo)

(familiyasi, ismi-sharifi)

Moddiy javobgar shaxs _____

(imzo)

(familiyasi, ismi-sharifi)

O'stirishdagi chavoqlarni inventarizatsiya qilish ularni chavoq boqiladigan

hovuzlar, lotoklar va basseynlardan o'stirish hovuzlariga o'tkazish paytida amalga oshiriladi. O'stirilgan chavoqlarni sanash donabay yoki etalon usulda amalga oshiriladi.

Baliqlar seleksiyasi, eksperiment o'tkazish va boshqa turdagi ishlarni amalga oshirishda uncha katta bo'lmagan miqdordagi yosh baliqlarga ehtiyoj bo'lganda donabay hisob yuritiladi. Sanash bir tekis tortilgan ipak to'r yoki doka yordamida amalga oshiriladi, shuningdek oddiy patnis idish yordamida lichinkalar suvi bilan birga boshqa idishga sekin quyiladi va sanaladi.

Katta miqdordagi chavoqlar hisobi yuritilganda etalon usulini qo'llash tavsiya etiladi. Bunda ham chavoqlarni sanash natijalari «Mavsumda lichinkalarni o'stirish natijalari to'g'risida Dalolatnoma» bilan rasmiylashtirilishi lozim.

Segoletkalarini inventarizatsiya qilish o'stirish hovuzlaridagi baliqlarni yig'ib olish paytida amalga oshiriladi. Inventarizatsiya natijalari komissiya tomonidan «Baliqlarni ovlash to'g'risida Dalolatnoma»ga asosan rasmiylashtiriladi.

Segoletkalarini yig'ib olish bir necha usullar yordamida amalga oshiriladi. Shulardan eng maqbuli har xil baliq tutish qurilmalaridan foydalanish hisoblanadi.

Qishlatiladigan hovuzlarga o'tkazish vaqtida segoletkalar soni hajm-og'irlik usuli bilan aniqlanadi. Bunda har bir o'ninchi chelak nazorat uchun sanab ko'riladi.

Bir yillik baliqlarni inventarizatsiya qilish ularni qishlatish hovuzlaridan yig'ib olish paytida amalga oshiriladi. Inventarizatsiya natijalari komissiya tomonidan «Baliqlarni ovlash to'g'risida Dalolatnoma» bilan rasmiylashtiriladi.

Baliqlar ikki yil boqilganida (ikki yillik oborotda) bir yillik baliqlar inventarizatsiya qilinadi. Bunda inventarizatsiya baliqlarni yaylov hovuzlaridan sotiladigan (tovar) mahsulot etishtiriladigan hovuzlarga o'tkazish jarayonida amalga oshiriladi. O'tkazilayotgan bir yillik baliqlarning qishda nobud bo'lgan foizi aniqlanib, qayta hisob-kitob qilinadi. Hisoblash hajm-og'irlik usuli bilan amalga oshiriladi.

Ikki yillik baliqlarni inventarizatsiya qilish^{*1} qishlatiladigan hovuzlarni bo'shatish va yaylov hovuzlariga o'tkazish paytida amalga oshiriladi. Bunda ham inventarizatsiya natijalari bo'yicha komissiya tomonidan «Baliqlarni ovlash to'g'risidagi Dalolatnoma» tuzilishi maqsadga muvofiq.

Ovlab olingan ikki yillik baliqlarning qishlatish davrida nobud bo'lgan foizi aniqlanib, qayta hisob-kitob qilinadi. Hisoblash hajm-og'irlik usuli bilan amalga oshiriladi.

Sotiladigan (tovar) baliqlarni inventarizatsiya qilish ularni ovlash paytida amalga

¹ agar ишлаб чиқариш технологиясига мувофиқ икки йиллик оборот қўлланилса.

oshiriladi. Bunda sotish uchun ovlangan baliqlar o'lchanishi va umumiy o'rtacha og'irligi aniqlanishi lozim. Lekin, bu ish baliqchilik xo'jaliklarida lozim darajada amalga oshirilmaydi. Ushbu vaziyatni o'nglash uchun ham inventarizatsiya natijalari bo'yicha komissiya tomonidan «Baliqlarni ovlash to'g'risida Dalolatnoma» tuzilishi zarur.

Agar yaylov hovuzlaridagi baliqlar yil oxirida ovlanmasdan qoldirilsa yoki qisman ovlansa, u holda bunday hovuzlarni inventarizatsiya qilish maxsus tuzilgan komissiya tomonidan amalga oshiriladi va qo'shimcha dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Baliqlar sonini hisob-kitob qilish maydoni va baliqlar zichligi shunga o'xshash hovuzlarni (2-5 tadan kam bo'lmagan) ovlash natijalariga asoslanadi.

Inventarizatsiya natijalari bo'yicha tegishli boshlang'ich hujjatlar rasmiylashtiriladi: inventarizatsiya ro'yxatlari yoki inventarizatsiya dalolatnomalari, taqqoslash qaydnomalari. Inventarizatsiya natijalari tegishli normativ hujjatlarga muvofiq buxgalteriya hisobida aks ettiriladi va soliqqa tortiladi.

Hovuzlardagi baliqlarni yoppasiga ovlash davrida baliqlarni ovlash, tashish, saqlash va sotish jarayonlarini nazorat qilish uchun xo'jalik rahbarining buyrug'i bilan ma'muriy-boshqaruv xodimlaridan vakillar hovuzlar, uchastkalar va navlarga ajratish bazalariga biriktiriladi.

Ovlash jarayoni boshlanishidan oldin grafik tuzilib, unda ovlash boshlanishi va yakunlanishi, ovlash kunlari soni, baliqlarni ovlash rejasi, hovuzlar raqami, ovlash brigadasi va boshqa zarur shart-sharoitlar ko'rsatiladi. So'ngra grafik baliqchilik xo'jaligining rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Xo'jalik buxgalteri ovlash boshlanishidan oldin tegishli boshlang'ich hujjatlarni va baliqlarni hisobga olish jurnalini rasmiylashtirish to'g'risida baliq ovlash, ovlangan baliqlarni saqlash, tashish va sotish bilan shug'ullanuvchi barcha mas'ul xodimlar bilan tushuntirish ishlari o'tkazadi.

Baliqchilik mahsulotlarini rasmiylashtirish uchun quyidagi boshlang'ich hisob hujjatlari tavsiya qilinadi:

- «Baliqlarni navlarga ajratish bazasiga etkazish bo'yicha bir martalik talon»;
- «Baliq ovlashni hisobga olish journali»;
- «Baliqlar kirimini hisobga olish journali».

Moddiy javobgar shaxs har kuni talonning birinchi nusxasiga asosan «Materiallar va mahsulotlar harakati to'g'risida Hisobot»ni tuzadi va buxgalteriyaga topshiradi.

Baliqlarni kirmga olish hovuzlar kesimida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, kirim satrida baliqlarning savdodan qaytgani ham ko'rsatiladi. Agar baliqchilik xo'jaligi baliqlarni baliqlantirish va keyinchalik boqish uchun jo'natayotgan bo'lsa, chiqim satrida baliqlar qo'yilgan hovuz raqami ham ko'rsatiladi. Buxgalter oy yakunida «Materiallar va

mahsulotlar harakati to'g'risida Hisobot»ga muvofiq tuzib, uning kirim qismida savdodan qaytarilgan baliqlar aks ettirilmaydi, ushbu miqdorga navlarga ajratish bazasidan sotishga jo'natilgan baliqlar chiqimi kamaytiriladi. Savdodan qaytarilgan baliqlar miqdori eslatma qismida alohida ko'rsatiladi.

Xulosa. Inventarizatsiya qilish jarayonini tashkil etishning tashkiliy-uslubiy jihatlari mavzusida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Hovuz baliqchiligi xususiyatlaridan (to'la tizimli, to'liqsiz tizimli, polikultura, monokultura va h.lar) kelib chiqib, namunaviy «Inventarizatsiya rejasini» ishlab chiqish taklif qilindi. Inventarizatsiya rejasini joriy etish ishlab chiqarish jarayonini aniq va tizimli hisob-kitob asosida boshqarish imkonini beradi.

2. Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish bo'yicha baliqchilik tarmog'ining xususiyatlariga mos boshlang'ich hisob hujjatlarining «*Baliqchilikda biologik aktivlarni inventarizatsiya qilish dalolatnomasi*»ning namunaviy shakli tavsiya qilindi. Tavsiya etilgan **namunaviy shakl** inventarizatsiya natijalarini rasmiy, aniq va yagona tartibda hujjatlashtirish imkonini beradi. Ushbu dalolatnoma orqali hovuzlarda mavjud baliqlarning tur tarkibi, soni, o'rtacha tirik vazni, umumiy massasi hamda biologik holati haqidagi ma'lumotlar tizimli ravishda qayd etish imkonini beradi.

3. Bosh baliqchi va komissiya tomonidan lichinkalarni sanash natijalari to'g'risida «*Mavsumda lichinkalarni etiltirish natijalari to'g'risida Dalolatnoma*»ning namunaviy shakli tavsiya qilindi. Taklif qilingan namunaviy shakl, lichinka etishtirish samaradorligi ob'ektiv baholash, rejalashtirilgan va amalda erishilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlar aniqlash hamda keyingi bosqichlar (chavoq etishtirish, hovuzlarga qo'yish yoki sotish) uchun ishonchli hisob ma'lumotlari shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Baliqchilik mahsulotlarini rasmiylashtirish uchun boshlang'ich hisob hujjatlari tavsiya qilindi. Ushbu hujjatlar orqali etishtirilgan, ovlangan va realizatsiya qilingan baliq mahsulotlarining turi, miqdori, sifati, vazni hamda qiymat ko'rsatkichlari o'z vaqtida va ishonchli ravishda qayd etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi O'RQ-404-son Qonuni «Buxgalteriya hisobi to'g'risida», <https://lex.uz/mact/2931253>.

2. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti 19-sonli BHMS.

3. Голубева.С.Г. Организация внутреннего контроля на предприятии. Леденсовские чтения. Бизнес. Наука. Образование: материалы ИИИ международной научно-практической конференции: в 2 частях. Вологодский институт бизнеса; под редакцией д.е.н., проф. Ю. А. Дмитриева. – 2013. – с. 391–398.

4. Кибиткин.А.И. Учет и анализ в коммерческой организации: учебное пособие / А. И. Кибиткин и др. . М.: Издателский дом Академии естествознания, 2012. – с. 368.

5. Кованная.Н. Инвентаризация: зачем и как ее проводят [Электронный ресурс]. Режим доступа - УРЛ: <https://www.аудитит.ру/артислес/ассоунт/бухсонсрет/а65/1022584.хтмл> (дата обращения: 27.11.2020).

6. Менгликулов.Б. Совершенствование организационно-методических аспектов учета и аудита сельскохозяйственных животных // Экономика и инновационные технологии. – 2018. – №. 4. – с. 162-172.
7. Мустафина А.Ф., Хусаинова А.М. Инвентаризация и документация как элемент метода бухгалтерского учета. Хроноекономика №5 (13) 2018.
8. Холбеков.Р.О. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. Дарслик. Чўпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. –Т. 2011. 85 б.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

